

**MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA LOYIHA METODINING
SHAXSIYLASHTIRISH OMILI SIFATIDAGI IMKONIYATLARI**

Nurmatova Intizor Adamboyevna

Osiyo xalkoro universiteti 1-bosqich magistranti 2025

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil ta’lim jarayonida loyiha metodidan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari hamda uning shaxsiylashtirish omili sifatidagi imkoniyatlari tahlil etiladi. Loyiha metodi o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuv sifatida bayon etiladi. Maqolada loyiha metodining ta’lim samaradorligiga ta’siri, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishdagi o‘rni va mustaqil ta’limni rivojlantirishdagi ustun jihatlari ilmiy manbalar asosida sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, loyiha metodi, shaxsiylashtirish, individual yondashuv, kompetensiya, ta’lim texnologiyasi, pedagogik innovatsiya.

Аннотация. В статье анализируются педагогические и психологические основы использования метода проектов в процессе самостоятельного обучения и его возможности как фактора персонализации. Метод проектов рассматривается как инновационный подход, позволяющий организовать образовательный процесс с учётом индивидуальных потребностей, способностей и интересов обучающихся. В статье на основе научных источников рассматривается влияние метода проектов на эффективность обучения, его роль в личностно-ориентированном обучении и преимущества в развитии самостоятельного обучения.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, проектный метод, персонализация, индивидуальный подход, компетентность, образовательная технология, педагогические инновации.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and psychological foundations of the use of the project method in the process of independent learning and its possibilities as a factor of personalization. The project method is described as an innovative approach that serves to organize the educational process taking into account the individual needs, abilities and interests of students. The article reviews the impact of the project method on educational effectiveness, its role in person-centered teaching and its advantages in the development of independent learning based on scientific sources.

Keywords: independent learning, project method, personalization, individual approach, competence, educational technology, pedagogical innovation.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish va ijodiy yondashuvni kuchaytirish ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli transformatsiya, internet resurslarining kengayishi va

axborotga erkin kirish imkoniyati o‘quvchilarni mustaqil o‘rganish, mustaqil izlanish va o‘z faoliyatini boshqarishga undamoqda. Shu sababli mustaqil ta‘lim o‘quv jarayonining markaziy elementi sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqil ta‘limni zamonaviy pedagogik jarayonda asosiy o‘rin tutadi. Talabanning o‘zini o‘zi rivojlantirish, bilimlarni amalyot bilan uyg‘unlashtirish kabi ijodiy fikirlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish ta‘limning sifatini oshrishda muhim o‘rin tutadi. Mustaqil ta‘limni samarali tashkil etishning asosiy vositalaridan biri — loyiha metodidir. Mazkur metod o‘quvchini ta‘lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Uning shaxsiy imkoniyatlarini namoyon etish, kompetensiyalarni rivojlantirish va bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi.

Amerikalik pedagog John Deshey ta‘limning samaradorligi o‘quvchining faol tajribasi bilan bevosita bog‘liq ekanini ta‘kidlab o‘tgan, loyiha metodini shaxsning amaliy faoliyatga asoslangan o‘rganish jarayoni sifatida talqin qilgan. Zamonaviy metodika olimlaridan esa — Ekaterina Sergeevna Polat va Vladimir Vladimirovich Guzeev esa loyiha metodining individual yondashuv va mustaqillikni rivojlantirishdagi ahamiyatini alohida ko‘rsatib o‘tganlar.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, loyiha metodining mustaqil ta‘limni shaxsiylashtirishdagi imkoniyatlarini ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Mustaqil ta‘lim — o‘quvchining o‘z tashabbusi, mas‘uliyati va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga tayangan holda o‘rganish jarayonidir.

Uning asosiy komponentlariga quyidagilarni misol qilish mumkin :

- ☐ o‘quvchining ichki motivatsiyasi;
- ☐ maqsad qo‘yish va rejalashtirish ko‘nikmasi;
- ☐ axborot izlash va qayta ishlash;
- ☐ bilimni qayta yaratish va amaliyotga tatbiq etish;
- ☐ o‘z-o‘zini baholash va refleksiya.

Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv talablari shundan dalolat beradiki, mustaqil ta‘lim faqat qo‘shimcha faoliyat bo‘lib qolmasdan, balki ta‘limning markaziy modeli sifatida ham qaralishi lozim hisoblanadi.

Loyiha metodi o‘quv jarayonini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, o‘quvchining mustaqil fikri va tashabbusini hamda rivojlantirishga qaratilgan ta‘lim texnologiyasidir. Uning muhim xususiyatlari:

Amaliy faoliyatga yo‘naltirilganlik

O‘quvchi real hayotga yaqin bo‘lgan vaziyatda bilimni qo‘llaydi oladilar.

Muammoli yondashuv

O‘quvchi tayyor javobni emas, o‘zi yechim topishni o‘rganadilar.

Hamkorlik

Guruhda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Shaxsga yo‘naltiriladi.

Har bir o‘quvchi o‘zi qiziqishi va imkoniyatiga mos loyihani tanlashi mumkindir.

Yakuniy mahsulot

Har bir loyiha amaliy natija bilan tugaydi: prezentatsiya, tadqiqot, model, ma'lumotlar tahlili va boshqalar.

Shaxsiylashtirish ta'limning har bir o'quvchiga mos variantini yaratish jarayonidir. Loyiha metodi bu jarayonda quyidagicha xizmat qiladi:

Individual qiziqishlarni hisobga olish

O'quvchi o'zi qiziqqan mavzu bo'yicha loyihani tanlaydi.

O'z sur'atida ishlash imkoniyati

Har bir o'quvchi loyiha jarayonini o'ziga qulay tezlikda olib boradi.

Mustaqil qaror qabul qilish

O'quvchi loyihaning maqsadini, usulini va natijasini mustaqil belgilaydi.

O'z-o'zini baholashning rivojlanishi

Loyiha faoliyati refleksiyani talab qiladi, bu esa shaxsiy o'sishga xizmat qiladi.

Ijodkorlik salohiyatini ochish

Har bir loyiha — ijodiy mahsulot bo'lib, shaxsning o'zini namoyon etish vositasidir.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatida innovatsion yondashuvlar, raqamli ta'lim va kompetensiyaviy modelni joriy etish jarayoni faol davom etmoqda. Mustaqil ta'lim va loyiha metodidan foydalanish quyidagilarni ta'minlamoqda:

- ☐ o'quvchining faol subyekt sifatida shakllanishi;
- ☐ o'quv jarayonini differensiallashtirish va shaxsiylashtirish;
- ☐ mustaqil izlanish va ilmiy tadqiqotga qiziqishni oshirish;
- ☐ ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, loyiha metodidan foydalanilgan guruhlarda mustaqil o'zlashtirish darajasi va o'quvchilarning motivatsiyasi sezilarli darajada yuqori bo'ladi.

Quyida loyiha metodini mustaqil ta'limga qo'llashning samarali bosqichlari keltiriladi:

- ☐ Muammoni aniqlash

O'quvchi real hayotdan olingan muammo yoki mavzuni mustaqil tanlay oladi.

- ☐ Maqsad qo'yish va rejalashtirish

Loyihaning asosiy bosqichlarini belgilab oladi.

- ☐ Axborot izlash

Ilmiy adabiyotlar, internet resurslari, amaliy ma'lumotlarni tahlil qiladilar.

- ☐ Amalga oshirish

Tajriba, kuzatish, intervyu, tahlil kabi metodlardan foydalaniladilar.

- ☐ Natijani taqdim etish

Taqdimot, slayd, loyiha hisobotlarini taqdim qiladilar.

- ☐ Refleksiya

Mening fikrimcha refleksiya jarayonida o'quvchi o'z faoliyatini va o'rgangan bilimlarini tahlil qilib nimani yaxshi o'rganganligini yaxshi bilib oladilar.

Xulosa qilib aytganga Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, loyiha metodi mustaqil ta'limni tashkil etishda shaxsiylashtirish modeli uchun eng samarali vositalardan biridir. U o'quvchini faol subyekt sifatida shakllantiradi, individual ehtiyojlarni va

10-Fevral, 2026-yil

qiziqishlarni inobatga olish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi, ijodiy fikrlashni va muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topa olish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Loyiha metodining qo‘llanishi ta’lim jarayonini dinamika, interfaol va natijaviy qila oladi. Shuningdek, mazkur metod kompetensiyaviy yondashuvning asosiy talablariga javob beradi va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeliga to‘liq mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Deshey J. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916. — p. 45–62; 113–128.
2. Polat E.S. Proektnyy metod v obuchenii. Moskva: Akademiya, 2000. — p. 25–41; 78–95.
3. Guzeev V.V. Metod proektov: teoriya i praktika. Moskva: Pedagogika, 2002. — p. 15–33; 102–118.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr). — 12–18-betlar.
5. Zamonaviy pedagogika bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. — p. 56–63; 147–152. Oliy ta’lim metodik qo‘llanma. Toshkent: O‘qituvchi, 2021. — p. 34–50.